

# TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2006-yil 19 - 25 - iyun N:25 (66566)

## Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi,  
«KAMOLOT» Yoshlar Ijtimoiy Harakati,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

## SAHIFALARDA

### BITIRUV-CHILAR BOG'I



### 3-BETDA

### YOZILMAGAN KITOB



### 7-BETDA

### CHINORNING YOSHI



### 8-BETDA



Kollejim - faxrim mening

Men Nabi G'aniyev nomidagi kino-video kasb-hunar kolleji kino-teleoperatorlik bo'limining 1-bosqichini a'lo baholarga tamomlab, 2-bosqichiga o'tdim. O'quv jarayonida kollejimizda qariyb 40 yildan buyon mehnat qilib kelayotgan aziz ustozlarimiz Mirg'ani To'laganov, Ernazar Shonazarov, Ergash Komilov, Mirzaxon Nazirov, Tohira Jumanova, shuningdek, Vafodor Choriyev, Mavluda Rasulova, Go'zal Hikmatova, Shahodat Baratova, Kamola Mirzarasulova, Shahnoza Abdullayeva, Gulchehra Tillaxo'jayeva kabi ustozlarimiz biz talabalarga mehr bilan bilimlarini beradilar. Direktorimiz Aminjon Mavlonov boshchiligida bu yil asosiy o'quv korpuslari ta'mirdan chiqib, yana yangi bir blok qurildi. Kollej uchun Samarqand shahrining «El» firmasidan barcha fan xonalari uchun 18 mln. so'mlik o'quv-laboratoriya jihozlari, plakatlar, kadaskop ekranlari keltirildi. Kollejimizga O'zbekkino milliy agentligi rahbari A'zam aka Isxoqov homiylik qiladilar.

Kollejimizda sport zali, Gollivud klubi, kino-video texnika apparatura va lingofon xonalari, eng so'nggi rusumdagi kompyuterlar bilan jihozlangan fan kabinetlari, ma'naviyat-ma'rifat xonasi, kino zali, kutubxona va shinam oshxona bor.

Obuna uzluksiz jarayon, deya ta'kidlab, olti oyni o'tkazib yubordik. Keyingi olti oylik uchun obuna jarayoni qay tarzda kechayotganligi haqida Toshkent viloyatidagi tumanlarga qo'ng'iroq qildik. Birinchi bo'lib Oqqo'rg'on tumani XTB kutubxonachilar uslubchisi Fotima opa O'rozqulova bilan bog'landik.

Tumanimizda 49ta maktab bor. Obunachilarimiz soni 110 nafarni tashkil etadi. Hozir o'quvchilar ta'tilda bo'lganliklari bois, obuna biroz susayishi mumkin. O'quv yili boshlanishi bilan yoki Obunachilar sonini Yangi yildan so'ng ko'paytirishga va'da beraman, - dedilar Fotima opa.

Parkent tumani, Obuna bo'limi mudiri Klara opa Mirsobotovadan esa quyidagi ma'lumotlarni oldik:

Tumanimizda olti oyga 260 nafar o'quvchi obuna bo'lishgan ekan. O'zingizga ma'lum, hozir o'quvchilar ta'tilda bo'lganliklari uchun ham bu jarayon oqsab qolishi tayin. Yil oxirigacha esa 90 nafar o'quvchi obuna bo'lishgan.


Bo'stonliq tumani XTB uslubchisi Shahlo opa Pardayeva bilan bog'langanimizda:

Tumanimizda 50ta maktab bor. Bulardan 20tasi o'zbek tilidagi maktablar bo'lib, qolgan 30tasi qirg'iz, qozoq, rus maktablari. Tumanimizda «Tong yulduzi» gazetasiga 148 nafar o'quvchi obuna bo'lishgan, - dedilar.

Kollejimiz 540 nafar o'quvchiga mo'ljallangan bo'lib, yangi o'quv yilida 900 o'quvchi ikki smenada o'qiydi. Unda Ovoz operatorligi, Kino-teleoperatorlik, Kino-video texnika, Radio va teleapparaturalarga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, Tomosha-tadbirlarda texnik xizmat ko'rsatish, Buxgalteriya hisobi, Menejment va xalqaro biznes bo'limlari mavjud, ularda talabalar zamonaviy kasblarni chuqur egallaydilar. Ta'lim maskanimiz Toshkent shahrining eng so'lim go'shalaridan biri talabalar shaharchasida joylashgan. Bitiruvchilar radio, televideniye, kino sohasi bilan birga boshqa qator muassasalarda ham xizmat qilishlari mumkin. 1-kursdaligimizdayoq kursdoshlarim bilan «Mahallamiz bolalari», «Yurt sehri», «Quyoshli yurt farzandiman», «O'zbekiston mening Vatanim» kabi syujetlarni tasmaga tushirgandik. Kino yoki kliplarning sifati operatorning mahoratiga bog'liq. Mening rassomchilikdan ham xabarim bo'lgani bois, rang-tasvirlar uyg'unligini yaxshi his qila olaman. Kelajakda o'z kasbining

mohir ustasi, kino-teleoperator, klipmeyker bo'lishni istayman. Maktabni tugatayotgan tengdoshlarimni ham o'zimizning sevimli kollejimizga o'qishga taklif qilaman. Hech shubha yo'qki, kollejimiz bitiruvchi ham Gollivuddek buyuk shaharlarda filmlarni tasvirga olish baxtiga albatta muyassar bo'lishsa.

Ruslan MIRZAYEV, Nabi G'aniyev nomidagi Toshkent Kino-video texnika kasb-hunar kollejining 1-kurs talabasi.



## QO'NG'IROQ



Biz Shahlo opaga, bu yildan boshlab qardosh tillarida o'qiydigan o'quvchilar uchun sahifalar tashkillashtirganimizni, agar boshqa millat o'quvchilari ham obuna bo'lishsa, yutqazmasliklarini aytdik.

Shunda ular: - Bunisidan bexabar ekanman, endi obunachilar sonini ko'paytirishga shaxsan o'zim harakat qilaman, - dedilar.

Shundan so'ng, Yuqori Chirchiq tumani XTB mudiri vazifasini bajaruvchi Iskandar aka Alasboyev bilan bog'landik.

Tumanimizda 40ta maktab bor. «Tong yulduzi» gazetasiga 467 nafar o'quvchi obuna bo'lgan. Bu ko'rsatkich albatta ko'tariladi, obuna mavsumida jadallikni hamda birinchilikni qo'ldan bermaymiz, degan umiddaman, - qo'shib qo'ydilar Iskandar aka.

Shu o'rinda bir e'tirozimiz ham bor. Biz asosan «Kamolot» YIHning Toshkent viloyati Tuman va shahar bo'limlari bilan bog'langanimiz bois, avvalo ulardan obuna haqida so'radik. Ammo ularning ko'pchiligidan: - Bu gazetani olmaymiz, - degan javobni olib, kayfiyatimiz tushib ketdi. «Kamolot»chilarning aksariyati Sirdaryo viloyatida chop etiladigan gazetalar targ'ibotini kuchaytirishgandan xabarimiz bor. Respublika bolalar gazetasi uchun ham shunday jon kuydirishganida edi, bir tumanda yil oxirigacha 90ta obunachi bor deb, uyalmay-netmay aytishmagan bo'lishardi. Bu mavzuga yana qaytamiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA.

## ILK TAASSUROTULARIM

Oxirgi imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirib, maktab ostonasini tark etishimizga ham sanoqli kunlar qoldi. Bolalikdagi orzum – yetuk jurnalist bo'lish. Shu bois 9-sinfni tugatib, O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Sobir Rahimov akademik litseyiga o'qishga kirmoqchiman. Maktabimizning psixologiya fani o'qituvchisi Nodira opa Oripova litsey haqida

ko'proq ma'lumotga ega bo'lishimiz uchun bizni u yerga olib bordilar. Ta'lim dargohi hovlisida rang-barang gullar ochilib turar, hammayoq saranjom-sarishta edi. Bizni iliq qarshilagan til va adabiyot fani o'qituvchisi Vazira opa Dadaboyeva darslar o'tilayotgan xonalarga olib kirdilar. Keng va yotug' xonalarda, Janubiy Koreya va boshqa turli xorijiy mamlakatlardan keltirilgan zamonaviy jihozlardan foydalanib, bilim olayotgan talabalar bizni iliq qarshi olishdi. Akademik litseyda professorlar, fan nomzodlari, dosentlar hamda yetuk mutaxassislar o'quvchilarga barcha fanlardan chuqur bilim berishar ekan. Bu yerda shoirlar, adiblar, xorijiy mehmonlar bilan tez-tez uchrashuvlar o'tkazilarkan. Eng quvonarlisi, talabalarga ko'pgina imkoniyat va imtiyozlar mavjudligida. Agar nasib etib dugonam Zilola bilan kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tib olsak, albatta «a'lo» baholarga o'qiymiz. Men bilim olishga ishtiyoqi baland tengdoshlarimni ham albatta ushbu ta'lim maskanida o'qishga chorlayman.

Nazokat AHMEDOVA,  
Respublika radiosining «Kelajak tongi»  
eshittirishi suxandoni.

## «2006-yil – Homiyar va shifokorlar yili»




Yoshligimda «o'yin, kulgu, tomosha sog'lom ko'ngilga sig'adi» yoki «ko'ngilga qil sig'maydi», degan iboralarning mag'zini chaqmagan ekanman. Haqiqatan ham eng baxtli inson - bu tani sog', ko'ngli butuni ekan. Men asli Buxoro shahridanman. Shifokorlik kasbini tanlab, dardga chalingan insonlarga qo'limdan kelgancha yordam berayotganligimdan faxrlanaman. Qabulimga yig'lab kelgan, dardmand insonlarning «qo'li yengil ekan» deya quvonch bilan shifoxonani tark etishi

menga olam-olam quvonch bag'ishlaydi. Chunki men Toshkentdagi Respublika onkologiya markazining bolalar bo'limida ishlayman. Bu

## «KISASIZ QOLSAK HAM MAYLI...»

yerga noumid bo'lib kelgan ota-onalar ham o'z uylariga ko'pincha xursand qaytishadi. Shifo maskanimiz eng zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan. Markaz direktori N.Navro'zovning sa'y-harakatlari bilan juda ko'p o'zgarishlar bo'lyapti. Bosh shifokorlar D.A.Qosimov, bolalar bo'limi mudiri K.R.Nuriddinov boshchiligida bu yerdagi qalbi kemtik insonlarning ko'nglini ko'tarish uchun juda ko'p tadbirlar o'tkazilib turadi. Yaqinda bu yerda madaniyat ishlari bo'yicha D.Rahmatova, kasaba uyushmasi rahbari A.Parmonov boshchiligida bolalarni himoya qilish kuniga bag'ishlangan katta tadbir bo'lib o'tdi. Unda bolajonlar bilan bir qatorda ularning ota-onalari, hamshiralardan Z.Valiyeva, M.Shoqodirova, R.Abdusalomov ham faol qatnashishdi. Ayniqsa, yosh teletomoshabinlar teatri qo'ygan «Oltin jo'ja» spektakli kichkintoylarga zavq-u shavq bag'ishladi.



Men bolajonlarimizning to'rt muchasi sog'bo'lishini tilayman. To'g'ri, bugungi kunda shifo maskanlarimiz eng so'nggi tibbiyot anjomlari bilan ta'minlangan. Shunday bo'lsa-da, bu yerlarga hech kimni borgulik qilmasin, deyman. Biz esa ishsiz qolsak ham mayliga.

Olga BUBEN,  
vrach-sitolog.



## «YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGI OYLIGI» KERAK...MI?

Ma'lumki, yo'l transporti hodisalarining oldini olish, yoshlarimizning yo'l-harakati qoidalari haqidagi bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori bilan yurtimizda 1-iyundan 1-iyulga qadar «Yo'l harakati xavfsizligi oyligi» o'tkazilyapti. Bunday tadbirning tez-tez o'tkazib turilishidan, ayniqsa, nuroniy otaxon-onaonalarimiz mamnun bo'lishyapti. Axir ular xizmatga, o'qish yoki bog'chaga ketgan o'g'il-qizlari, nabiralardan xavotir olib o'tirishadi-da. Yo'l harakati qoidalari tez-tez eslatib turilishi esa faqat ular uchun foydadan holi bo'lmasligini ular yaxshi bilishadi-da. Lekin ayrim insonlar esa aksincha, bunday tadbirlarga yuzaki qarashadi. «Nima, biz yosh bolamizmi yo'ldan o'tishni bilmaydigan? Shu tadbirni o'tkazgan bilan «avariya»lar soni kamayib qolarmidi?» deyidiganlar ham topiladi. Achinarlisi, ular bu gaplarni farzandlari yonida gapirishadi. Lekin bir o'yab qaranga. Bolalar hozir yozgi ta'tilga chiqishdi. Endi ularning bo'sh vaqtlari serob. Ota-onalarimizning aksariyati xizmatda bo'lishadi. Nazoratsiz qolgan bolalarning mashina serqatnov yo'llarda o'ynamasliklariga kim kafolat bera oladi? Agar e'tibor bergan bo'lsangiz, yosh bolalardan ko'ra kattalar ko'proq yo'l qoidalari buzishlariga guvoh bo'lasiz. Bunga misol qilib, kuni kecha yonginamizda ro'y bergan mudhish voqeani keltirish mumkin.

Endigina 9-sinfni bitirib, qaysi litsey yoxud kollejga o'qishga kirish haqida o'yab yurgan Umidjon bir kuni do'stinikiga otlandi. Biroq, unika yetib bora olmadi.

Serqatnov yo'lni kesib o'tayotganida juda katta tezlik bilan kelayotgan mashina uni urib yubordi. Umid daraxtga zarb bilan urilib, ariqqa yiqildi. Ro'paradan kelayotgan mashina esa bexosdan uning ariqdan chiqib qolgan oyog'ini bosib yubordi va u voqea joyida olamdan o'tdi.

Bu voqea aybdorlari albatta tegishli jazoni olishar, lekin endigina mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan Umidjonning xazon bo'lgan yoshgina umrini kim qaytarib beradi?

Muxlisa MUSAXO'JAYEVA,  
SHO'IM qoshidagi «Yosh jurnalist» to'garagi a'zosi.

## «USTOZGA O'XSHASAK...»

Raqibiga kuchli zarba berishga shaylanib turgan mana bu abjir sportchi yigit bizning ustozimiz Botir aka Rahimov bo'ladilar. Iye, darvoqe, o'zimizni tanishtirmabmiz-ku... Biz Sherali Sohobov va Bekzod Norpo'latov. Maktabda o'qishlarimiz yaxshi. Darsdan bo'sh vaqtlarimizda G'ijdivon shahridagi Markaziy sport majmuasiga qatnaymiz. Majmuamizda 15ga yaqin to'garaklar bo'lib, bari bolajonlar bilan gavjum. Ayniqsa, hozirgi ta'til kunlarida.

Biz ham ana shu maskan qoshidagi karate va qo'l jangi to'garagiga a'zomiz. Murabbiyimiz Botir akaning 100dan ziyod shogirdlari bor. Ko'pchilik bo'lsak-da, ustozimiz barchamizga barobarlar. Haqiqiy mard va jasur o'g'lonlar bo'lib kamol topishimiz uchun astoydil harakat qilyaptilar.

O'z navbatida biz ham u kishining ishonchini oqlab, nihollari» universi- adasida, res- viloyat miqyo- barcha muso- larda qatnashib, yuqori o'rinlarni kelyapmiz. muhabbat, o'z- singdirib o'ktam, jasur qilyapmiz.



«Umid publika, sidagi baqa- eng egallab Botir aka bizga ona yurtga o'ziga ishonch kabi tuyg'ularni kelyaptilar. Kelajakda ular kabi inson bo'lishga astoydil harakat

Sherali SOHIBOV,  
Bekzod NORPO'LATOV,  
Buxoro viloyati,  
G'ijdivon shahri.

# BITIRUVCHILAR BOG'I

Poytaxtimizning Sirg'ali tumanida xolam yashaydilar. Avvallari ularnikiga tez-tez borib turardim. Lekin keyingi paytlarda o'qishlar, imtihonlar bilan bo'lib, anchadan beri ularnikiga borolmadim.

Yaqinda xolamlarnikiga borgandim. «Sirg'ali-5» mavzesidagi «Alaviya» ko'chasi bo'ylab borarkanman, to'g'risi, bu yerlarni taniyolmay qoldim. Sababi, avvallari tashlandiq axlatxona bo'lib yotadigan bu maydon o'rnida gurkirab turgan bog' paydo bo'libdi. Xuddi bir sehrgar paydo bo'lgan-u, «kuf-suf» deya axlatxona o'rnida bog' paydo qilib qo'ygandek. Keyin bilsam, bu bog' shu tumandagi 322-maktab rahbarlari tashabbusi bilan, o'qituvchi hamda o'quvchilarining sa'y-harakatlari bilan barpo bo'libdi.

Shunday chiroyli

bog'ning yaratuvchilari bilan suhbatlashib, ular haqida gazetaga maqola yozish niyatida maktabga bordim.

**Ibrat**

Kimga uchrashishimni bilolmay turgandim, imtihondan chiqib kelayotgan bir o'qituvchi opamiz yonimga kelib, maqsadimni so'radilar. O'zlarini shu maktabning ona tili va adabiyot o'qituvchisi Nasiba opa Turdiqulova deya tanishtirgan ustoz quyidagilarni gapirib berdi.

-Qizim, biroz barvaqtroq kelmabsiz-da,-deya so'z boshladilar opa. -Kuni kecha xuddi mana shu biz turgan yerda ajoyib bayram bo'ldi. Maktabimizning «ilk qaldirg'ochlari»ni mustaqil hayotga «uchirma» qildik. Gulchehra Turg'unova boshlovchilik qilgan tadbirimiz Mehridin Meyliyev, raqslarni sahnalashtirgan Dilobar Mo'minova, turli nominatsiyalarni tashkil qilgan Zumrad Baxrinovaning sa'y-harakatlari bilan juda chiroyli o'tdi-da...



Biroz ezmalanib yubordim-a, chog'i. Bog'imiz haqida gapiradigan bo'lsam, tashlandiq yerni obod qilish fikri direktorimiz Nargiza Mirzayevnadan chiqqandi. Bog' yaratish ishlarida o'zlari ham faol qatnashdilar. Yuqori sinf o'quvchilarining ustozlari bilan birgalikda astoydil mehnat qilishayotganini ko'rgan tuman hokimizimiz «E-e, hormanglar!» deya 400 tup terak, 200 tup archa va bir qancha gul ko'chatlarini sovg'a qildilar. Maktabimiz tomonidan keltirib ekilgan mevali daraxtlar ham baravj o'sib, kishi ko'zini quvnatyapti. Hammadan ham bog' atrofidagi aholining xursandligini aytmaysizmi?

Xullas, bu so'lim bog' maktabimiz bitiruvchilaridan bir esdalik bo'lib qoladi-da. Ularning uka va singillari esa bog'ni parvarishlab, yanada kengaytirishga ahd qilishdi...

«Yaxshidan bog' qoladi», deganlari shu bo'lsa kerak-da, a, nima dedingiz?

*Nargiza AKBAR qizi.*



«Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 448-maktabgacha ta'lim muassasasida 240 nafardan ziyod bolajonlar tarbiyalanmoqda. Chor-atrofi gul-u gulzor, soya-salqin, ushbu maskanda kichkintoylar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni ko'rsangiz, dilingiz quvnaydi. «Xayr bog'cha, salom maktab!», deya nomlangan, yuqori guruh bolajonlarining qiziqarli xayrlashuv tadbirida ishtirok etib, ularni va ota-onalarini suhbatga chorladik».

**Mohira NURMUHAMMEDOVA, katta guruh tarbiyalanuvchisi:** - Maskanimizga to'rt yildan buyon qatnayman. Tarbiyachi opalarim Maxsuma Jo'raxojayeva hamda Zamira Nurovadan o'qishni, yozishni, sanashni o'rganib oldim. Bu yerda turli xil qiziqarli o'yinlar o'ynaymiz.

Maktabga ketayotgan bo'lsak ham, bog'chamni juda yaxshi ko'raman. Mendan maskanimizga bu yerga albatta kelib turaman.

**Ukam bog'chaga boradi**

**Rixsiy SHUHRATOVA, katta guruh tarbiyalanuvchisi:** - Maskanimizda har xil rasmlar chizamiz, quvnoq qo'shiqlar ijro etamiz. Bu yerda bizga har kuni shirin taomlar berishadi.

**Bilol MIRBOBOYEV, katta guruh tarbiyalanuvchisi:** - O'rtoqlarim Rashid, Sohib, Sunnat, Ulug'bek, Nazokat, Madina bilan basseynida mazza qilib cho'milamiz. Sport bilan muntazam shug'ullanamiz, turli musobaqalar o'tkazamiz. To'g'risini aytсам, maktabga borish yaxshi, ammo bu yerdan hech ketgim kelmayapti.

**Baxtiyor ORTIQOV:** - Qizim Mohiraning ushbu maskanda bilimi va tafakkuri yana ham kengaydi. U bemalol sonlarni qo'shib, ayira oladi. Belgilarni ajratadi.



Tarbiyachi opalaridan xursandmiz.

**Gulchehra SHOMANSUROVA:** - O'g'lim Furqatjon yoshligidan boshlab ushbu maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnaydi. Uning xursandchiligini ko'rib, o'zim ham quvonib ketaman. Kuni bilan ishimda xotirjam ishlayman. Bolalarimizni o'z

## «ALIFBE»MAN - OFTOBMAN

farzandlariday bag'riga bosib, tarbiyalagan opalariga rahmatlar aytgim keladi.

**Mashkura MURODOVA:**

Qo'li yengil tibbiyot xodimlari Malika Nizomova, Muyassar Xolmatova har kuni bolalarimizning sog'lig'ini nazorat qilib borishadi. O'g'lim Shuhratjonning o'qishni va sanashni o'rganib olganidan, nutqining o'sib borayotganidan juda xursandman.

**Yoqutxon HAMIDOVA, maktabgacha ta'lim muassasasi uslubchisi:** - Maskanimizda 10ta guruh tashkil etilgan bo'lib, ularda 19 nafar malakali tarbiyachilarimiz faoliyat ko'rsatishadi. Mudiramiz Gulchehra Narzullayevaning tinib-tinchimasligi, izlanuvchanligi bois zamonaviy pedagogik texnologiyalar, turli qo'llanmalar asosida ish yuritamiz. Bu yil 16 nafar tarbiyalanuvchilarimizni maktabga kuzatayapmiz. Muassasamizda bolalar nutqini rivojlantirish, qo'l mehnati, sartaroshlik, yong'in xavfsizligi, tabiatni o'rganamiz, psixologik muhit kabi 15ta o'yin burchagi bo'lib, ularda tarbiyalanuvchilar muntazam ravishda shug'ullanadilar. Maqsadimiz, bolajonlarimiz sog'lom va erkin fikrlaydigan bo'lib voyaga yetishsin.

Ha, tadbirida ishtirok

etayotgan barcha bolajonlarning ravon tilda she'r va ashulalar kuylayotganini, turli sahna ko'rinishlarini berilib ijro etayotganini ko'rib, ularning biyronligiga tan bermay ilojingiz yo'q. Sahnaga bolajonlarning olqishlari ostida kirib kelgan «Alifbe», «Matematika», «Ona tili», «Atrofimizdagi olam» kabi kitoblar, o'zlarining qiziqarli savollariga tarbiyalanuvchilarning bergan to'xtovsiz javoblaridan shoshib qolishdi. Ayniqsa, «Alifbe» kitobining quvonchi cheksiz. U bolalarga qarata, «Men oftobingizman, endi sizlar bilan birga bo'laman. Hamisha qunt bilan o'qisangiz, eng dono, bilimdon bolalar bo'lasiz. Maktabga borganingizda meni va do'stlarimni yirtmasdan, yuzimizni kir qilmasdan toza saqlasangiz, bu sizning birinchi o'quvchilik burchingiz bo'ladi», - deganida zal jonlanib ketdi.

Bolajonlar va ularning shirinso'z tarbiyachilari bilan xayrlashar ekanmiz, maktab ostonasiga qo'yayotgan ilk qadamingiz qutlug' bo'lsin, degimiz keldi.

*Jamila ERDONOVA.*



*Yurgan daryo, o'tirgan bo'ya deganlaricha bor ekan. Yaqinda Xorazm viloyati bo'yab xizmat safariga otlangan muxbirimiz Qoraqalpog'iston Respublikasiga ham bo'lib qaytdi. Safarini Xorazm viloyati xalq ta'limi Boshqarmasi boshlig'i bilan hamsuhbat bo'lishdan boshlagan muxbirimiz yana ko'plab bolalar maskanlarida, «Mehribonlik uyi», maktabgacha ta'lim muassasalarida bo'libdi.*

*Quyidagi qo'sh sahifada uning suratli lavhalari, tengdoshlarimiz hayotini aks ettiruvchi qiziqarli maqolalari bilan tanishib, yangi do'stlar ortirasiz, degan umiddamiz.*

**«XORAZMLIK MUXLISLARIMIZ SONI YANA 600 NAFARGA ORTDI»**

*Muxbirimizning bizga yetkazgan birinchi xushxabari shunday bo'ldi. Quvonarli shundaki, o'quvchi-yoshlarimiz ma'naviyatini yanada boyitishga hissa qo'shishdek xayrli bu ishga Xorazm viloyati xalq ta'limi Boshqarmasi boshlig'i S. Sharipovning shaxsan o'zlari bosh-qosh bo'libdilar.*

*Muxbirimizning xorazmlik bolalarning ta'lim-tarbiyasi, qiziqish va intilishlari, bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazishlari, qo'ying-chi, ularning hayoti haqidagi savollariga Boshqarma boshlig'i shunday dedi:*



– Xorazm viloyatidagi umumta'lim maktablarining soni 2001-yilda 530ta bo'lgan bo'lsa, 2005-yilga kelib 539taga yetdi. Ulardagi turli fanlar uchun o'rgatiladigan 876ta sinfda 26.280 nafar o'quvchi ta'lim olmoqda. Ixtisoslashgan maktablar soni 30tadan 40taga, ularda tahsil olayotgan o'quvchilar soni esa 12.117 nafardan 18.314 nafargacha ortdi.

Viloyatimizdagi iqtidorli o'quvchilarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Chunki ular respublika miqyosida o'tkazilgan turli tanlovlarda qatnashib, yuqori natijalarga erishib kelyaptilar. O'tgan 4 yil mobaynida 6 nafar o'quvchimiz xalqaro tanlovlarda g'olib bo'lishdi. Fan olimpiadalarining respublika bosqichlarida 78ta sovrinli o'rinlarni egallashdi. Shuningdek, 16 nafar o'quvchimiz AQSHda, 8 nafar o'quvchimiz Koreya Respublikalarida ta'lim oldilar. O'quvchilarimizning huquqiy bilimlarini oshirish maqsadida har yili «Huquqiy savodxonlik oyli» o'tkazish yaxshi bir an'anaga aylangan. Oylik davomida «Konstitutsiya - baxtimiz poydevori», «Konstitutsiyani bilasizmi?», «Men huquqiy demokratik jamiyatda yashayapman» mavzularida rasmlar, plakatlari, yozma ishlar tanlovlari o'tkazildi. Ularda g'olib chiqqan ko'plab o'quvchilarimiz tanlovlarning respublika bosqichida ham muvaffaqiyatli qatnashib, 2-3-o'rinlarni egallashga muvaffaq bo'ldilar. «Adolat» partiyasi bilan hamkorlikda o'tkazilgan «Konstitutsiyani bilasizmi?» mavzusidagi insholar tanlovlarning respublika bosqichida Xiva tumanidagi 6-maktabning 10-sinf o'quvchisi

M.Masharipova birinchi o'rinni egallab, 100.000 so'm pul mukofoti olishga muvassar bo'ldi. O'quvchilarning texnik ijodkorligini oshirish maqsadida o'tkazilgan «Texnik loyihalash» tanlovlarning respublika bosqichida

**XORAZMNING O'G'IL-QIZLARI**

Urganch shahridagi «Yosh texniklar markazi» to'garagi a'zolari o'rinni egalladilar.

Viloyatimiz yoshlari orasida adabiyotga, she'riyatga mehr qo'yanlari ham talaygina.

Yangiriq tumanidagi 11-son ixtisoslashtirilgan maktab-internatning 11-sinf o'quvchisi Yorqinoy Ernazarova «Zulfiya izdoshlari» tanlovida ishtirok etib, ta'lim yo'nalishi bo'yicha «Zulfiya» nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Bugungi kunda 539ta umumta'lim maktablari kutubxonalari faoliyat ko'rsatib kelyapti. 1.568.037 nuxxadagi turli mavzulardagi kitoblarni kitobsevar bolalarning ixtiyorida. Urganch shahridagi 25-son maktabi bitiruvchilarining tashabbusi bilan viloyatning 9-11-sinf o'quvchilari 35 mln. so'mlik, ya'ni, 80 ming nusxadan ziyod badiiy adabiyotlar to'pladilar. Shuningdek, o'quvchilarning ota-onalari, o'qituvchi va tarbiyachilarning tashabbusi bilan bir kunlik xayriya



tadbiri o'tkazilib, tushgan mablag'larga 25 mln. so'mlik 43 ming nusxa badiiy adabiyotlar olinib, kutubxona fondlari yanada boyitildi.

Umumta'lim maktablari qoshida tashkil qilingan pulsiz to'garaklarga 150946 nafar, musiqa va boshqa turdagi to'garaklarga 3045 nafar o'quvchi a'zo bo'lib, ayni ta'til kunlarini maroqli va mazmunli o'tkazishyapti.

Barcha umumta'lim maktablarimizda o'qituvchilar uchun ham, o'quvchilar uchun ham maxsus kiyim joriy qilingan. Bu borada «Eng orasta kiyinish madaniyatiga ega maktab jamoasi» ko'rik-tanlovi o'tkazilib, uning respublika bosqichida Yangibozor tumanidagi 8-son maktab o'quvchilari faxrli 2-o'rinni egalladilar.

«Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchilari ham e'tibordan chetda qolayotgani yo'q. «Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchilari bilan mahalla faollari hamkorligini takomillashtirish borasida muayyan chora-tadbirlar belgilandi. «Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchilarining sunnat hamda

**Muxbir safardan qaytdi**

muchal to'ylarini o'tkazish xayrli an'anaga aylani boryapti.

Yoshlarimiz orasidagi

qonunbuzarliklarning oldini olish, uning kelib chiqish sabablarini chuqur o'rganish borasida ham talaygina ibratli ishlar amalga oshirilyapti. «Giyohvandlik - asr vabosi», «Oq ajal», «Giyohvandlik - umr zavoli» mavzularida o'tkazilgan insholar tanlovida, «Biz OITS va giyohvandlikka qarshimiz» tanlovi aksiyasida 12.000dan ziyod o'quvchi yoshlar o'zlarining yozma ishlari va ijod namunalari bilan qatnashdilar.

Mahallalar qoshida balog'at yoshidagi qizlarni oilaga tayyorlash maqsadida maxsus o'quvchilari tashkil qilingan bo'lib, u yerda qizlarimiz momolarining o'g'itlarida tinglab borishadi. Xiva shahrining Ichan Qal'a mavzesida ota-bobalarimizning unut bo'lib ketayotgan kasb-korlarini qayta tiklab, bolalarga o'rgatish maqsadida «Usta-shogird» an'analari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Viloyatdagi 322ta bunday yo'nalishdagi to'garaklarda 13.789 nafar o'quvchi kandakorlik, misgarlik, tepakdo'zlik, gilamdo'zlik kabi hunarlarining hadisini olishyapti.

Viloyatimizdagi 539ta umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan 325.607 nafar o'quvchining jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishlari uchun 419ta sport zallari, 575ta futbol, 534ta voleybol, 472ta basketbol, 366 ta qo'l to'pi, 49 ta tennis maydonlari va 246ta sport shaharalari muntazam faoliyat ko'rsatyapti. Bolalar sportini yanada rivojlantirish maqsadida 2003-2005-yillarda uchta II tipdagi, ikkita V tipdagi va bitta I tipdagi bolalar sporti majmualari qurilib, foydalanishga topshirildi. To'qqizta har xil inshootlar rekonstruksiya qilinib, bolalar sporti inshootlariga aylantirildi. Bunday maskanlarda sport bilan muntazam shug'ullanib, mahoratlarini yanada oshirib borayotgan sportchi bolalarimiz «Umid nihollari» sport musobaqalarida munosib qatnashib, umidimizni oqlab kelyaptilar.

Hozirgi o'quvchilarning yozgi ta'til kunlarida ularning sport bilan shug'ullanishlariga yanada ko'proq ahamiyat berilyapti. Ular orasida futbol bo'yicha viloyat birinchiligi, «Mahallamiz polvonlari», «Otam, onam va men - ahil sportchilar oilasi», «Biz sog'lom va kuchli oilamiz» kabi musobaqalar uyushtirilyapti. Ayniqsa, viloyatdagi bolalar oromgohlari o'rtasida o'tkaziladigan sport musobaqalari juda qiziqarli o'tyapti.

Yuqoridagilardan xulosa qilgan holda xorazmlik bolalarimizning bilimiga intiluvchan, hunar o'rganishga ishtiyuqmand, sportsevar, bir so'z bilan aytganda, oltinga teng o'smirlik damlarining qadriga yetadigan o'g'il-qizlardir.

**S. SHARIPOV,**  
viloyat xalq ta'limi Boshqarmasi boshlig'i.

**BOG'CHANING «TUG'ILGAN KUNI»**



Tadbirdan bir olam taassurotlar olib, o'zining ham maktab davrini xotirlab qaytayotgan muxbirimizning qulog'iga jajji bolajonlarning quvnoq musiqa sadolari jo'rigida kuylayotgan qo'shiqlari chalinib qolibdi.

Bu qanday maskan bo'ldi ekan, deya ichkari kiribdi. Unga peshvoz chiqib, iliq tabassum bilan qarshi olgan ayol bu maskan Urganch shahridagi XTbga qarashli 39-son maktabgacha ta'lim muassasasi ekanligini, o'zi esa shu bog'cha mudirasi Maqsuda O'razmetova ekanligini aytib, bog'cha haqida quyidagilarni gapirib beribdi:

– Maktabgacha tarbiya muassasamiz 2005-yil 1-sentabr kuni to'liq rekonstruksiya qilinib, ishga tushdi. Hozirgi kunda bu so'lim go'shada 140 nafar kichkintoy ta'lim-tarbiya olmoqda. Muassasamiz ingliz, rus va badiiy gimnastika yo'nalishida faoliyat ko'rsatmoqda. Biz Urganch shahridagi sport maktabi bilan hamkorlikda ish olib boramiz. Jajji gimnastikachilarimizga badiiy gimnastika bo'yicha sport ustaligiga nomzod Nargiza Pirmiyozova ustozlik qiladi. Ingliz tilidan saboqni esa Dilnoza Allabergenovanadan olishadi. Vaqti-vaqti bilan bolajonlarimiz bilimlarini sinab boramiz. Yaqinda kichkintoylarimiz ingliz tili va badiiy gimnastikani qanday o'rganishayotganini sinab ko'rish maqsadida «Bog'chamiz malikasi» nomli ko'rik-tanlov o'tkazdik va ularning tirishqoq, zehni ekanliklariga, tarbiyachilari-mizning ham o'z vazifalarini sidqidildan bajarishayotganiga yana bir bor amin bo'ldik.

Sport bolajonlarimizning jon-u dila, Ayniqsa, suzish mashg'ulotlari desa, qiyiqirqlari olamni buzib yuboray deydi. Shuni inobatga olgan holda yozgi va qishki cho'milish hovuzchalarimizni shay qilib qo'rganmiz.



Sport bolajonlarimizning jon-u dila, Ayniqsa, suzish mashg'ulotlari desa, qiyiqirqlari olamni buzib yuboray deydi. Shuni inobatga olgan holda yozgi va qishki cho'milish hovuzchalarimizni shay qilib qo'rganmiz.

Sport bolajonlarimizning jon-u dila, Ayniqsa, suzish mashg'ulotlari desa, qiyiqirqlari olamni buzib yuboray deydi. Shuni inobatga olgan holda yozgi va qishki cho'milish hovuzchalarimizni shay qilib qo'rganmiz.

Yaqinda bog'cha-maktablar o'rtasida o'tkazilgan «Sog'lomjon - polvonjon» sport musobaqasida ham kichkintoylarimiz 1-o'rinni egallab, bizni xursand qilishdi.

Bolajonlarimizning bog'cha opalaridan ham omadlari chopgan. Shukurjon Abdullayeva, Anagul Ro'zmetova, Rohatoy Boboyeva, Oybiyi Odilova, Gulora Saidmurodova kabi ijodkor pedagoglarimiz mashg'ulotlarni noan'anaviy usulda, mujassam holda olib borishadi.

Uzoq yillar davomida bolajonlar bilan ishlash jarayonida ularning fe'l-atvorlarini yaxshi tushunib olganman. Ayniqsa, xotirlari juda kuchli bo'lishiga amin bo'lganman. Ular hayotlarida ro'y bergan quvonchli voqealarni ham, qayg'uli holatlarni ham hecham unutmaydilar. O'tgan yili 22-sentabr kuni bog'chamizga yurtboshimiz I.A.Karimov tashrif buyurgandilar. Bolajonlarimiz hali-hanuz ana shu quvonchli uchrashuvni xotirlashadi. «Bog'chamizga Prezident bobomiz kelganlar» deya g'ururlanib yurishadi.

Hademay mustaqilligimizning 15 yilligini keng tantana qilamiz. Shu kuni biz uchun qo'shaloq bayram bo'ladi. Bog'chamizning «tug'ilgan kuni»ni ham nishonlaymiz. Kichkintoylarimiz bog'cha opalari bilan birgalikda bayramga qizg'in hozirlik ko'rishyapti. Istiqlolimizni madh etuvchi she'rlardan yod olishyapti, qadrdon bog'chalariga bag'ishlab qo'shiqlar kuylashyapti.

Bayramimizga siz ham kelsangiz, bir olam zavq-u shavq bilan ketishingizga ishonamiz.



**«BIZNING KOSHONA»**

qilishadi. Har oying 25- sanasida bolajonlarimizning tug'ilgan kunlarini, 12-sanasida esa «Mehribonlik uyi»mizning «tug'ilgan kuni»ni nishonlaymiz. Mehrga tashna bolajonlarimizdan o'z himmatlarini aya-may kelayotgan Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq va Suv xo'jaligi vazirligidan, Qoraqalpog'iston Milliy Universiteti xodimlaridan, shaxsiy firma tadbirkorlari Sergul Kaipova, Kandibay Bakirov, O'ktam Samandarov, T. Jumaniyozov, J.Yembergenov, S.Kurbanizayov kabi homiyalarimizdan ham behad minnatdormiz.

14-aprelda bolajonlarimiz Nukus shahridagi Yosh

Bu ro'yxatni istagancha davom ettirish mumkin. Demochimanki, bolajonlarimiz bu dargohda hecham zerikishmaydi, biror kunlari behuda, besamar o'tmaydi. Bo'sh vaqtlarida sport to'garaklariga qatnashadi, kasb-hunar o'rganishadi, kitob o'qishadi. Ularning salomatliklari esa mehribon shifokorlarimiz nazoratida, 7ta xonadan iborat tibbiy bo'limimiz shifotalab bolajonlar ixtiyorida.

Shunday bo'lsa-da, tarbiyalanuvchilarimizning ko'zlarida qandaydir bir mung, o'kinch bordek. Bu ota-ona bag'rini, ularning qaynoq mehriini sog'inishdan bo'lsa kerak...

Direktorning mulohazalari bizni ham o'ylantirib qo'ydiki. Uning ta'kidlashicha, «Mehribonlik uyi»da tarbiyalanayotgan bolajonlardan 23 nafari chin yetim ekan. 71 nafarining yo otasi, yo onasi bor. Qolgan 66 nafarining esa otasi ham, onasi ham hayot ekan. Shunday bo'lsa-da, ular ota-ona mehridan bebahra o'sishayotganiga achinib ketasan kishi.

Siz suratda ko'rib turgan mana bu koshona Qoraqalpog'iston Respublikasidagi 1-sonli «Mehribonlik uyi»dir. Bu yerda ota-onasidan ajralgan, ulardan biri yoki har ikkisi bo'la turib, ayrim sabablarga ko'ra bu yerga kelib qolgan 160 nafar o'g'il-qiz ta'lim-tarbiya olmoqda.

«Mehribonlik uyi» direktori vazifasini vaqtinchalik bajarib turgan S.M.Son muxbirimizga quyidagilarni so'zlab berdi:

–1922-yilda tashkil topgan «Mehribonlik uyi»miz 340 bolaga mo'ljallangan maktab-internat binosiga ko'chib o'tganiga ham salkam 20 yil bo'larkan. Yillar davomida ancha eskirib, ta'mirlalab bo'lib qolgan binomiz 2004-2005-yillarda to'la rekonstruksiya qilinib, afsonaviy uy qurib berishdi. Tarbiyalanuvchilarimiz uchun yaratilgan shart-sharoitlarni aytmaymizmi? Ayrim uy sharoitlaridan ham alo desak, ishonavering. Har bir xona televizor, kitob javoni, yumshoq mebellar to'plami, yangi karavotlar bilan jihozlandi. Zamonaviy uslubda qurilgan yopiq turdagi basseyn, hammom-sauna, tennis kortlari bolajonlar ixtiyorida. Uzoq yillardan buyon mana shu dargohda mehnat qilib kelayotgan A.O'rozboyeva, U. Jarilkasinova, A. Xolmuxanbetova, N.Abdijamilova, Sh.Gaipova, A.Kiyasova, G.Kadirova, T.Kurbanizayova kabi mehdardaryo tarbiyachilarimiz ular qoshida parvona. Tarbiyalanuvchilarimizning bolalik damlari ham oilasi bag'rida yashayotgan tengdoshlariniki kabi baxtli, maroqli, quvonchli voqealarga boy o'tishi uchun astoydil harakat



bolalar teatriga borishdi. 17-aprelda «Oltin toj» musobaqasi 11-mart kuni esa «Balli qizlar!» musobaqasi o'tkazildi.


19-mart kuni ko'pgina bolajonlarning sunnat hamda muchal to'ylari nishonlandi. Bayram tadbiriga mehmon bo'lib kelgan tuman prokurori A.Ro'zmetov, Xo'jayli tumani xotin-qizlar qo'mitasi raisi A.O'rinboyeva, «Sog'lom avlod uchun» jamg'armasi boshlig'i G. Otegenova va 40 nafar buvijonlar to'y bolalarga o'z sovg'a-salomlarini topshirdilar.

21-mart kuni tuman hokimi D.K.Sultonov 8-9-sinf o'quvchilaridan 50 nafarini qabul qilib, ular bilan subhat o'tkazdi. Kelajakda qanday kasbni tanlashlari, intilish va orzulari bilan qiziqdi, otalarcha nasihatlar qildi. So'ngra, ularni to'kin dasturxon atrofiga jamladi.



**QO'NG'IROQNING SO'NGGI JARANGI**

Umumta'lim maktablarida o'tkaziladigan tadbirlar ichida o'quvchilar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham eng hayajonlisi «So'nggi qo'ng'iroq» tadbiri bo'lsa kerak, nazarimizda. Yangibozor tumanidagi 13-o'rtta maktabda ham quvonchli, ham biroq qayg'uliroq tarzda o'tgan ana shunday tadbirlardan birida muxbirimiz ham ishtirok etibdi. Maktabning 613 nafar o'quvchisi, 51 nafar bitiruvchilarning ota-onalari, faxriy o'qituvchilar ishtirokida o'tgan tadbir juda qiziqarli, maroqli o'tibdi. Qishloq fuqarolar yig'ini raisi H. Eshniyozov, Xalq ta'limi boshqarmasi vakili R.Ro'zimov, tuman xalq ta'limi bo'limi vakili M. To'rayev, qishloq oqsoqoli G. Kamolov hamda faxriy o'qituvchilarning samimiy tabriklarini jon quloqlari bilan tinglagan bitiruvchilarning maktab direktori F. Soatov so'zga chiqib, ularga oq yo'l tilaganda, ko'z yoshlarini tiya olishmaganini ko'rib, muxbirimizning ko'zlarida ham beixtiyor yosh xalqalanibdi. O'z navbatida ular ham birma-bir so'z olib, mehribon ustozlariga minnatdorchilik bildirishibdi.



Sahifa materiallarini Feruza JALILOVA, Salimjon IN'OMZODA tayyorlashdi.

Yoz fasli.

Soya-salqin quyuq daraxtzorda uch nafar sinfdosh - Sobir, Rashid va Hamidjon qo'y-qo'zilarini boqib yuribdilar. Hozir ta'til davri, darslar yo'q, uyda bekor yotgandan ko'ra, hech bo'lmasa qo'ylarni boqib, oilaga, ota-onalariga nafi tegsa, yomonmi? Buning ustiga toza havo, tabiat qo'yni, maktab kutubxonasidan olingan sevimli kitobni qo'lga olib, uni birma-bir varaqlashga nima yetsin...

Yalanglikka yetganlarida Sobirjon atrofga alangladi.

– Qanday go'zal-a, tabiatimiz. Qushlarning xonishini, ariqdagi zilol suvning shildirashini, osmon-chi...

Rashid huzur qilib kerishdi. Mana bu chinorni ko'r. Uchi naq osmonga yetadi-ya.. Yoshi ham... Ikki yuz yilcha bo'lgandirov..

Sobir unga ishonqiramay qaradi.

– Ikki yuz yil. Toza olib qochasan-da. Ha, endi yuz yil desang boshqa gap edi. Chinor sen aytgancha yashamaydi.

Rashidga bu gap og'ir botdi. U umuman o'ziga e'tiroz bildirishlarini yoqtirmasdi.

– Nimalar deyapsan? Axir ba'zi chinorlar ming yildan ham ko'p umr ko'radilar-ku..

– Lof ham evi bilan-da.

– Ishonmayapsanmi?

– Nega endi ishonar ekanman.

Rashid qip-qizarib ketdi.

– Bahs boylashasanmi? Shu chinorga naq...

– Bahs,-uning so'zini bo'ldi Sobir irshayib. – Qanday qilib bahs boylashamiz. Nima, ikki yuz yildan buyon yashayotgan... biron bir kishini izlab topmoqchimisani, - ha-ha-ha, vo-ha-ha, o'zining o'tkir hazilidan zavqlanib kuldi Sobir. – Ichakni uzding-ku, galvars?

Sobirning qotib-qotib kulishidan, o'zining masxara bo'layotganidan alam bo'lgan Rashid kutilmaganda do'stining yoqasidan oldi.

– Men senga hozir kulishni ko'rsatib qo'yaman. Hozir isbotlayman. Hozir uydan biron narsa olib kelib... Ko'rasan. Hech qayoqqa qimirlamay tur...

Sobir Rashidning qishloq tomon yugurib ketayotganini kuzatib turib, so'ng, ajablanib Hamidjonga qaradi.

– Jinnimi deyman...

Hamidjon esnadi:

– Sen ham undan tuzuk emassan. Xo'p deyavermaysanmi... Bilasan-ku uning fe'lini, tutgan joyidan qo'ymaydi. Senlarni bilmadim-u, ammo mening juda cho'milgim kelayapti. Ketdikmi anhora?

– Shoshma, anavi ham kelsin-chi. Birga boramiz.

Yam-yashil o'tloqda yastanib yotgan Sobir va Hamidjon qo'lida bolta o'ynatib o'zlar tomon yugurib kelayotgan Rashidni ko'rishdi-da, qo'rqanlaridan dik etib o'rinlaridan turib ketishdi.

– N-n-nima qilmoqchisan,-qalt-qalt titradi Sobir hali Rashid ularga yetib kelmasdan o'zini orqaga olarkan. -Esingni yig', hoy bola!

Hamidjon esa esi og'ib qolgudek qolgan, gapirishga ham holi yo'q edi. – Hozir senga ko'rsatib qo'yaman, -dedi yaqinlashib qolgan Rashid tez yugurganidan og'ir-og'ir hansirarkan. – Agar bilmasang, bilib qo'y. Daraxtlar qancha umr ko'rsa, ular tanasida shuncha halqa bo'ladi. Yuz yil yashagan bo'lsa, yuzta, ikki yuz yil yashagan bo'lsa, ikki yuzta... buni har qanday maktab o'quvchisi ham biladi. Ammo bizning «professor»ning xabari yo'q ekan-da. Nega tushunmayapsan... Hali ham yetib bormayaptimi? Qo'rqaningdan esing og'ib qoldimi yo? Sobir salpal o'ziga keldi: xayriyat-e, gap boshqa yoqda shekilli...

– Esimda, - dedi u bir nimalarni esiga tushirib. – O'tgandik qaysi bir darsda: matematikadami-ey, geometriyadami...

Rashid ho-holab, dedi:

– Matema-a-tika... Geome-e-triya... Sen darslarga ham kirmay, non sotib yurasan bozorda. Endi bu kishi birovlarining ustidan kuladigan bo'lib qolibdilar. Balki musiqa darsida o'tgandirmiz? O'simliklar dunyosi qaysi fanda o'tiladi o'zi? Bilmaysan, albatta... Buning hech ajablanadigan joyi yo'q. Boltani ushla qaltiramay. Hozir ikkalamiz chinorni kesamiz-da, uning tanasidagi halqalarni sanaymiz. Kim yutqazsa, bitta, yo'q, o'nta «Koka-kola» oladi. Yutqazdim, deyaver. Nega daming ichingga tushib ketdi. Qo'rqayapsanmi yutqazishdan? Unda tan ol.

Sobir quruqshagan lablarini yaladi va Hamidjonga qaradi.

Hamidjon zo'rma-zo'raki jilmaydi. Unga ham Rashidning maqsadi endi ayon bo'lgan edi.

– Qo'ysalaring-chi. Shu ham hazil bo'libdi-yu. Kelinglar, bu bema'ni bahsni yig'ishtirib, anhorda cho'milamiz, - vaziyatni yumshatmoqchi bo'ldi u.

Sobir Rashidga ko'z qirini tashladi.

– Ketdikmi og'ayni...

– Yo'q, - qat'iy qilib dedi Rashid. – Oldin bahsni yechishimiz kerak, undan keyin...

Sobir yana Hamidjonga qaradi. Hamidjon esa ensasi qotganday yuzini biroz burishtirib turdi-da, hafsalasizlik bilan qo'l siltab, quvnoq bir kuyni hushtak qilib chalgancha anhor tomon yo'l oldi.

O'rtadagi jimlikni Sobir bo'ldi:

– Qandoq bo'lar ekan shunday ajoyib chinorni kessak... Balki kerak emasdir...

– Demak, yutqazding... Tan olgan bo'lsang, bo'pti...

O'nta «Kola» sendan, -sinfdoshiga mag'rurona boqdi Rashid. Sobir biroz ikkilanib turdi-da, og'ir xo'rsinib dedi:

– Bo'pti, men rozi.

...Hamidjon cho'milishdan qaytib kelganda, hozirgina osmonni quchib turgan ulkan chinor, yonidagi yosh nihollarni bosib-yanchib bor bo'yi bilan yerda ag'anab yotardi. Daraxtning gursillab qulashidan

qo'rqib ketgan bo'lsalar kerak, qo'y-qo'zilar huv uzoqdan shu tomonga hadiksirab qarab turardilar. Sobir va Rashid esa kesilgan chinor kundasi

ustiga chiqib olishib, butun olamni unutishib, barmoqlari bilan chinor tanasidagi bilinar-bilinmas halqalarni niqishib...

– Yo tavba, nimalar bo'lyapti bu yerda o'zi? Nega bu chinor yerda ag'anab yotibdi? Anovi jinnilar nima qilishayapti? Shular kesdimi chinorni? Axir men o'yabmanki, o'ylagan edimki... bu shunchaki... hazil...

Hamidjon hech narsaga tushuna olmasdi. Do'stlari nihoyat boshlarini ko'tarishdi. Berilib, diqqat bilan halqalarni sanaganlaridan bo'lsa kerak, peshonalarida paydo bo'lgan terni kaftlari bilan artdilar-da, so'ng, bir-birlariga mamnun bo'lib qaradilar.

Sobir dedi:

– Yuz ellik yil bo'lgan ekan. Sen esa ikki yuz yoshda deganding.

– Sen esa ikki yuz yil devding... Ikkalamiz ham xato qilibmiz-da.

Endi «Koka-kola»ni kim olib beradi? Bahsimiz yechilmay qoldi-ku.

Ularning suhbatini eshitib turgan Hamidjon baqirib yubordi:

– Nima, shu bahsni deb yuz ellik yil umr ko'rgan chinorni kesdilaringmi? Noinsoflar, aqli qusurlar... Hali bu ishlar uchun, bu jinoyatlaring uchun odamlar oldida, tabiat oldida javob berasanlar.

Do'stlari cho'chib tushib, Hamidjonga hayron bo'lib qarab turardilar. Biroz o'tib Rashid o'ziga keldi:

– Nega qichqirayapsan bemahalg'i xo'rozga o'xshab... Yo o'zing ekib qo'yganmisan? Sening tomorqangmi bu? Agar biz uni kesmaganimizda necha yil yashaganini qayerdan bilar edik.

Inson hamma narsani bilishi kerak, to'g'rimi? - xuddi ko'mak so'ragandek Sobirga o'girildi u.

Sobir ko'zlarini olib qochdi.

– To'g'ri...

– Ana, aytmaganmidim, - xursand bo'lib ketdi Rashid. Ammo...

Ammo Hamidjonni anhora achinib qarab turganining ahvolini ko'rdi-da, o'zining ham yuragida allaqanday aybdorlik hissi paydo bo'ldi. Bekor kesdik shekilli. Qanday qilib gunohimizni yuksak ekan. Kech bo'lmadimi...

Nihoyat u tilga kirdi.


– Qo'y, kuyinma shu arzimagan daraxt uchun. Qara, atrofda ko'p-ku bunday daraxtlar, - g'o'ldiradi u.

Hamidjon uning so'zlarini eshitmasdi. Nima voqea ro'y berganini u hamon ruhan idrok eta olmas, tush ko'rayapmanmi deb o'ylar, nigohini esa yerda ag'anab yotgan chinordan olmasdi.

Befarqlikka borgani uchun, hafsalasizlik qilgani uchun, asriy chinorni asrab qolishga urinmagani uchun (axir ularning nima qilmoqchi ekanligi unga ma'lum edi-ku) o'z-o'zidan nafratlanar, do'stlarini esa ko'rgani ko'zi yo'q edi.

Chunki ko'zlarida chinorning yoshini bilishga yo'yilgan bahs sabab, boshqacha yosh to'lib turardi.

Ibrohim CHORIYEV.



**YUZ YIL**

**YUZ YIL**  
(Hikoya)



**TONG yulduzi**

O'zbekiston Respublikasi  
bolalari va  
o'smirlarining gazetasi

**BOSH MUHARRIR:**

**Umida**

**ABDUAZIMOVA**

**TAHRIR HAY'ATI:**

Turobjon JO'RAYEV,

Dilbar OLIMJONOVA,

Botir UBAYDULLAYEV,

Jabbor RAZZOQOV,

Dilmurod RAHMATILLAYEV,

Dilshoda DADAJONOVA,

Feruz JALILOVA

(bosh muharrir o'rinbosari),

Sobirjon SHARIPOV,

Nurxon NAFASOV,

Ergashvoy SARIQOV.

**Gazeta O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida**

**022-raqam bilan**

**2003-yil 11-dekabrda**

**ro'yxatdan o'tgan.**

Noshir

**«O'zbekiston»**

nashriyot-matbaa

ijodiy uyi.

Gazeta

**«O'zbekiston»**

nashriyot-matbaa

ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib

sahifalandi va

chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba

kuni chiqadi.

Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

**Adadi - 48849**

**Buyurtma N: J2515**

Dizayner va sahifalovchi:

**Fazliddin**

**SHAYADGAROV**

Navbatchi:

**Gulnora**

**AHMEDOVA**

Rassom:

**Nodira MIRZAYEVA**

Manzilimiz:

**700129,**

**Toshkent shahri,**

**Navoiy ko'chasi, 30-uy.**

**Obuna indeksi: 198.**

e-mail:

**tong\_yulduzi@rambler.ru**

**Tel: 144-23-81**

**144-63-08**

**Tel./ faks:**

**(99871) 144-24-45**